

# ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-YANVAR

ANDIJON, 2024

## SIROJIDDIN SAYYID SHE'RLARIDA METONIMIYA

*Mehrinoza Jiyanalievna Oybek qizi  
Andijon davlat universiteti magistranti*

Metonimiya deb voqea-hodisa, narsa-buyumlar o'rtasidagi o'zaro yaqinlik va bog'liqlik asosida ma'no ko'chishiga aytildi. Metonimiya ham qiyosga asoslanadi. Faqat «metaforada bir-biriga o'xshash predmetlarning belgilari qiyoslansa, metonimiyada bu ikki predmet tashqi ko'rinishi yoki ichki xususiyatlari bilan bir-biriga qandaydir aloqasi bo'lsa ham, ammo, umuman bir-biridan farq qiluvchi (bir-biriga o'xshamagan) predmetlarning belgilari chog'ishtiriladi. Masalan: "yaxshilikmi, yomonlikmi haytovur bo'ladirg'an ko'ngilsiz gapn i kechikkani yaxshi", "Fuzuliyni yaxshilab o'qush kerak." (A.Qodiriy) Ushbu gapda muallif va uning asarlari o'rtasidagi aloqadorlikka asoslanib «asar» muallif nomi bilan qayta nomlanyapti. Yoki: "Saroy tinch uyquda, tun yarim" (A.Qodiriy). Bu misolda «saroy» so'zi orqali «saroydagi odamlar» ma'nosi ham ifodalangan. Metonimiyaning turli ko'rinishlari mavjud va bu haqda tilshunoslikka oid adabiyotlardan atroflicha ma'lumot olish mumkin. Biz sizga bir mansurani havola qilmoqchimiz. Unda muallifning metonimik qayta nomlash usulidan mahorat bilan foydalanganiga o'zingiz guvoh bo'lasiz: Xemengueyni o'qish – Aka, Xemenguey ham badimga urib ketdi, - dedi buxorolik shoir. – Endi o'qiyapman Jabron Xalil, Folkner, Frishni. O'sha kuni uyg'a keldim. Yana kezib chiqdim o'zim sevgan Ernst olamlarini. To'g'ri ekan. Badga urishi mumkin ekan hatto Xemenguey ham. Agar o'z erking ko'rinsa juda uzoq. Ishonching darz ketsa. Tuyulsa omonat, liqildoq. Muomalaga o'rgatar Xemenguey. Olijanob muomalaga. Biz esa tobora yiroqlashib boryapmiz bunday muomaladan (I.G'afurov). Aslini olganda ham muayyan qiyofaga ega bo'lgan va biror narsaning nomi bo'lgan lug'aviy birliklarning yangidan yana nomlashga jalb qilinishi tilshunoslikda ikkilamchi nomlanish deb yuritiladi. Ikkilamchi nomlanishning asosiy turlari metatofora va metonimiyadir. Ikkilamchi nomlash mahsuli bo'lgan nomlar ozohli lug'atlarda rim raqami bilan (II-III) qayd etiladi. Bulardan tashqari, ko'p komponentli lug'aviy birliklarning nutq asnosida ixchamlashuvi jarayonida, ya'ni ellipsislashuvi jarayonida ham o'ziga xos nomlanishlar yuz beradi. Bunday nomlash ham yuqorida bo'lganidek, yangi lug'aviy birlik yuzaga keltirmaydi, balki mavjud so'zlar assosida birdan ortiq komponentli yangi nomlar yasaladi. Joy nomi bilan aholi, mahsulot, hodisa, meva va boshqalarni atash ham metonimiyaning bir ko'rinishi hisoblanadi. Chunki metonimiyaning o'zi makon va zamonda narsa, voqelik, belgi, harakat yoki holatning o'zaro aloqadorligiga ko'ra birining nomi bilan ikkinchisini atash orqali ko'chma ma'no hosil bo'lishidir. Joy nomlari bilan atash orqali sodir bo'lgan metonimiyalarda shahar, mamlakat, qit'a va hokazolar nomlari asos bo'lishi mumkin. Bunda shoirning g'oyaviy-estetik maqsadini ifodalash uchun foydalanganligi kuzatiladi. Xususan, bu hodisa Sirojiddin Sayyid ijodida ham ko'plab uchraydi:

1. Shahar nomida shu joyda yashayotgan xalq atalgan va ko'chma ma'no hosil bo'lgan:  
Oqsaroya qay kunki yuz burgandim men,  
So'nmish shon-u shavkating deb kuygandim men.  
She'r aytishni sal-palgina o'rgandim men  
Chinorlarda yig'lab yotgan barglaringdan.

Oqsaroy-Toshkent shahrining joy nomlaridan hisoblanadi. Matnda Oqsaroya yuz burish orqali shoirning ichki o'y-hayollari aks etgan va Oqsaroya emas, balki Oqsaroydag'i insonlarni nazarda tutrmoqda.

# ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-YANVAR

ANDIJON, 2024

2.Joy nomi shu hududda yashayotgan xalqning milliy belgilari ataladi:

Kim shamol,  
Kim otda uchib yelishdi,  
Peshinmi, shom chog'i va yo ertalab  
She'riyat shahriga kirib kelishdi.  
Men To'polondaryoni keldim yetaklab

Bu parchada metonimiya joy nomiga so'zning qo'shilushi orqali yuzaga kelgan. She'riyat To'polondaryo belgisini ochadigan xususiyat bo'lib, ularning birikuvi yagona metonimiyani yuzaga keltiradi. "Kim shamol" va "Kim otda uchib yuribdi" jumlalari "inson harakatining natijasi" mazmunini beradi. Demak, poetik matndagi mantiqqa ko'ra lirk qahramon adabiyot bo'stoniga kimlardir shamoldek yelib, kimlardir otda uchib kirib kelishmoqda, men ham ularga havas bilan boqdim, va lekin men To'polondaryoni o'zim bilan yetaklab keldim mazmuni anglash mumkin. Nima uchun To'polondaryo? Shoир nega endi aynan To'polondaryoni o'zi bilan birga olib kirmoqda? O'zining ijodini suronli, vajohatli, lekin suvdek pokiza ijod ekanligi ko'rsatish uchun metonimiyadan shoир mohironalik bilan foydalanmoqda.

3.Joy nomi shu hududda yashayotgan xalqning uzoq o'tmishi, tarixini ifodalaydi:

Men baxtimdan mudom yurdim ilgari,  
O'tdi yana ramazon-u iydlari.  
Dimog'imdan hargiz ketmadi nari  
Mir Temuriy qovunlarning hidrlari.

Ma'lumki, SHarq ufqning to'rt asosiy nuqtasidan biridir. Misradagi Mir Temuriy kabi ajdodlar, allomalar Sharqning gultojisi hisoblanadi. Bu metonimiyaning birinchi qatlamidir. Ikkinchisi esa, poetik tasvirda tarix yaqqol aks etib turganini ko'rishimiz mumkin. Bu misralar orqali quyidagi tarixiy voqeа ufurib turadi: "Sayhun suyining shimoli tarafidagi qasabalar: bir Axsidur. Kitoblarda Axsikat bitirlar... Umarshayx Mirzo muni poytaxt qilib edi. Sayhun daryosi qo'rg'onining ostidin oqar... Qovuni yaxshi bo'lur. Bir nav' qovundirkim "Mir Temuriy" derlar, andoq qovun ma'lum emaskim olamda bo'lg'ay". (Zahiriddin Muhammad Bobur. «Boburnoma», sakkiz yuz to'qson to'qqizinchi (1494) yil voqealari).

4. Narsa-buyumni atash orqali metonimiya sodir bo'lishi mumkin:

Yog'och so'ri, bu dunyoda nima ko'rding?,  
Nima ko'rdirim bu dunyoda, yog'och so'ri?  
Kechalar sen yolg'izgina o'ylar surding,  
Mening esa ado bo'ldi qalbim qo'ri.

Bu matnda yog'och so'ri birikmasi orqali metonimiya sodir bo'lgan. Yog'och so'ri orqali xalqning, qo'li qadoq insonlarning dardini aks ettirgan.

5. Joyi nomi e'tiqod, haqiqat, ma'nosini bildirishi mumkin:

O'chmas Yer yuzida Buxoro nomi,  
Toki yashar ekan Buxoriy nomi.

Mangu esaverar Termiz ellari,  
Toki nur taratgay Termiziyllari.

# ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-YANVAR

ANDIJON, 2024

O'pdi bu tuproqdan neki jon border,  
Hazrat Yassaviy bor-Turkiston bordir.

Bu parchada Buxoriy nomi haqiqat, istiqbol timsoliga aylangan. Shahar nomining metonimiya hodisasiga aylanishiga asos Buxoro yer yuzining sayqali hisoblanadi va butun dunyo uning jamolini ko'rishga intiladi. Poetik matnda metonimiya katta ijtimoiy-siyosiy mazmunni ifodalashga xizmat qilgan. Mustaqillik xalqimizga haqiqat yo'lini ko'rsatdi. Bu e'tiqod xalqimizga diniy e'tiqodni ham qaytarib berdi. Imam Buxoriy nomi orqali o'zbek xalqining nomi ham, Buxoroyi sharif nomi ham abadiy ekanligi poetik aks etgan.

6. Joy-shahar nomi, mamlakat poytaxti butun bir mamlakatni bildirib keladi. Ma'lumki, Hiro-turkiy xalqlarning qadimiy shaharlaridan biri. U Bobur va ko'plab ulkan daholarni yetishtirgani bilan mashhurdir. Sirojiddin Sayyid bir she'rida yozadi:

Ulug' Temurxonning shavkat-u shoni,  
Shahrisabz, Samarqand-jahon ayvoni.

Dunyo g'urbatiga nazar tashlablar  
O'tdi Boburlar-u o'tdi Mashrablar.

Keltirilgan parchada Shahrisabz, Samarqand butun bir mamlakatning mazmunini ifodalamoqda. Mamlakatda Amir Temurning shon-shavkati e'tirof etilgan. Poetik matnda ayvoni so'zi ham o'ziga xos ko'chma ma'no bergen."Jahon ayvoni" birikma sifatida Amir Temurning butun mamlakatdagi ulug'ligini ochish vositasiga aylangan. Yuqoridagi tahlillardan shu narsa ayon bo'ladiki, joy nomlari asosida metonimiya hosil qilish keng imkoniyatlarga ega. U faqat nimanidir atovchi metonimik ko'chma ma'noni yuzaga keltirib qolmay, shoir g'oyasi, qarashlarini ham bildiradi. Til va yozuvchi o'rtasidagi munosabatni shahmat va shahmatchi o'rtasidagi munosabatga qiyoslash mumkin. Shahmatda har bir donaning mavqeyi, darajasi shahmat taxtasi ustidagi harakatlanish qoidalari avvaldan belgilangan. Ana shu qoidalarni tugal egallash oqibatida yuzaga kelgan yuksak mahorati tufayli shahmatchi tamoman yangi, kutilmagan yurishlar qiladi, betakror kombinantalar yaratadiki, bu yangi raqibini mag'lub va muxlisini maftun qilish imkonini beradi. Tilda ham bir unsurning o'z vazifasi, ma'no doirasi, boshqa unsurlar, birliklar bilan bog'lanish qonuniyatları mavjud. Ana shu qonuniyatlardan mukammal boxabar bo'lgan, badiiy didi, so'z sezgisi va mahorati yuksak yozuvchi betakror tasvir, kutilmagan, ohorli badiiy lavhalar, so'z chaqinlarini paydo qila oladiki, kitobxon adibning nafaqat g'oyasi, balki go'zal tilining asiriga aylanadi. Bunda yozuvchi umumxalq tilidagi badiiy tasvirga favqulotda muvofiq birliklarni tanlash, saralash va sayqallash asosida, lisoniy-badiiy qonuniyatlardan kelib chiqqan holda ularga yuklagan xilma-xil badiiy-estetik ma'nolar hal qiluvchi vazifasini bajaradi.

Sirojiddin Sayyidning "So'z yo'li" to'plamidagi she'larning til birliklarini, xususan, so'zlarni o'rinni tanlash va qo'llash bilan bog'liq o'ziga xos jihatlar juda ko'p. Sirojiddin Sayyid tanlab qo'llagan har bir so'z o'zining ifoda imkoniyatlarini butun boricha namoyon etadi.

Quyuq xotiralar piyolasidan  
Esdaliklar ichib o'tirar onam.  
Diydor-u shodliklar shalolasidan  
Barcha xandon bunda,  
Do'st-u yoron jam.  
Tinib qolgandayin go'yo atayin  
Yog'och so'rimizning tepasida oy.

# ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-YANVAR

ANDIJON, 2024

U ham sovib borar tun o'tgan sayin,  
Misli bir piyola to'la sariq choy.

She'rda tasvirlanishicha, bolalik va yoshlik paytlaridagi bir oilaning nechog'lik baxtli, shodon umrlari bir ho'plam choy kabi o'tib ketganligi, katta oilaning bir joyda jamul-jam bo'lganligi va bir piyola choy quyilganidan keyin, ma'lum bir muddat o'tib, choyningsovishi tabiiy, lekin shoirning mahorati shu joyda aqlni o'yga toldiradi. Ajabo! Tun o'tgan sayin oyningsovishi piyoladagi sovib qolgan choygaga va yana choyning sariq, tiniqligi ham oyga o'xshatilmoqda. Ushbu misralardagi holat ifodasida "Esdaliklar ichib o'tirar onam" jumlasining qo'llanilishi adibning so'z hassosiyatidan dalolat beradi. Bu jumlaning o'rniga "Onam xotiralar ichida" jumlasini qo'llashi mumkinmidi? Albatta, mumkin edi. Har ikkala jumlada ifodalangan denonat bir xil, ya'ni ularning asosiy ma'nosida jiddiy farq yo'q. Ammo bu so'zlar bo'yoq dorligi, subektiv munosabat ifodasi, darajasi, qo'shimcha ma'no qirralariga ko'ra bir-birlaridan farq qiladi. Jumlada qo'llangan "Esdaliklar ichar" birikmasi "Xotiralar ichida" birikmasiga qaraganda yumshoqroq, hissiyroq, uning ma'nosida subektning onaga bo'lgan ijobiy munosabati aniq ifodalangan. Va shuni aytish o'rinligi, onaning yaxshi kunlarni, farzandlarining birdam, birga bo'lgan, xursandchiliklarga to'la kunlarning ichida yurishini metonimiya orqali ifoda etgan. Nega deganda, asli xotiralarni, esdaliklarni ichib bo'lmaydi, asli mana shu o'tmishning baxtli onlarning ichida yuribdi. Shuning uchun ham "Esdaliklar ichib o'tirar onam" birikmasi so'zlovchining ruhiy holatiga ham, mavqeyiga ham muvofiq keladi. Adibning "Onamni rozi qiloldikmikin?!" degan ma'nodagi botiniy andishasi va ayni damdagi ilojsiz bir holati bu birikmaga ko'ra juda chiroyli va aniq ifodalagan.